



**SANOAT ISHLAB CHIQRISH HAJMI VA MAHALLIY XOM-
ASHYO MANBALARINI QO‘LLASH ORQALI KORXONALARDA
ISHLAB CHIQRISH TANNARXINI KAMAYTIRISH**

Egamberdiyev Shavkatbek

Andijon davlat texnika instituti

“Iqtisodiyot” yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqola O‘zbekiston sanoat korxonalarida ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishning samarali usullarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Asosiy e‘tibor mahalliy xom-ashyo manbalarini qo‘llash orqali korxona xarajatlarini optimallashtirishga qaratilgan. Maqolada so‘nggi yillarda sanoat ishlab chiqarish hajmi, tarmoqlar bo‘yicha xom-ashyo iste‘moli va mahalliyashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *sanoat ishlab chiqarish, mahalliy xom-ashyo, korxona tannarxi, mahalliyashtirish, iqtisodiy samaradorlik, resurslarni tejash.*

Kirish.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonalarining raqobatbardoshligini ta‘minlashda sanoat ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ishlab chiqarish tannarxi korxona moliyaviy barqarorligi va bozor raqobatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Tannarxni kamaytirish esa korxona foydasini oshirish, mahsulot narxini raqobatbardosh darajada belgilash hamda resurslarni samarali boshqarish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, korxona rahbarlari va iqtisodiy tahlilchilar doimo ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va samaradorlikni oshirish yo‘llarini izlamoqdalar.

Maqolaning asosiy e‘tibori mahalliy xom-ashyo manbalarini ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish orqali tannarxni kamaytirish masalasiga qaratilgan. O‘zbekiston sharoitida korxonalar ko‘pincha xom-ashyoni import qilishi tufayli qo‘shimcha xarajatlar bilan yuzma-yuz bo‘ladi. Import xarajatlari, bojxona to‘lovlari, transport xarajatlari va valyuta kursining o‘zgarishi korxona tannarxini



sezilarli darajada oshiradi. Shu bois, mahalliy xom-ashyo resurslaridan foydalanish iqtisodiy samaradorlikni oshirish va ishlab chiqarish jarayonini barqarorlashtirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda O'zbekiston sanoat korxonalari mahalliyashtirishga e'tibor qaratib, xom-ashyo zaxiralarini mahalliy ishlab chiqaruvchilardan ta'minlashga intilmoqda. Masalan, metall, plastmassa, paxta va boshqa xom-ashyo tarmoqlarida mahalliy manbalardan foydalanish ulushi oshib, korxona tannarxini kamaytirishga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, hududlar kesimida mahalliy xom-ashyo ishlab chiqarish imkoniyatlari va sanoat salohiyati turlicha bo'lib, ba'zi hududlarda mahalliy resurslardan foydalanish darajasi past bo'lishi ham kuzatiladi. Bu esa hududlararo farqlarni, ishlab chiqarish samaradorligini tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Maqolada so'nggi 3 yillik sanoat ishlab chiqarish hajmi, mahalliy xom-ashyo ulushi va tannarxdagi o'zgarishlar stat.uz rasmiy manbalari asosida tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarishning turli tarmoqlari va hududlar kesimida solishtirilib, mahalliyashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri grafiklar va jadvallar yordamida ko'rsatiladi. Bu tahlil korxonalarga xom-ashyoni mahalliy manbalardan yetkazib olish strategiyasini ishlab chiqish, tannarxni kamaytirish va resurslarni tejash imkoniyatlarini aniqlashda amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Maqolaning bugungi kundagi dolzarbligi asosan quyidagilar bilan izohlanishi mumkin:

- Import xarajatlarining oshishi va global iqtisodiy o'zgarishlar korxonalarning xarajat tuzilmasiga sezilarli ta'sir qilmoqda;
- Mahalliy ishlab chiqarish salohiyatini oshirish orqali iqtisodiy mustaqillikni kuchaytirish imkoniyati mavjud;
- Xom-ashyo yetkazib berish zanjiridagi barqarorlikni ta'minlash korxonalarning ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz va samarali qiluvchi asosiy omil hisoblanadi;



- Davlat tomonidan mahalliyashtirish va import o'rnini bosuvchi loyihalarni qo'llab-quvvatlash siyosati korxonalarda tannarxni kamaytirish va resurslarni tejashni rag'batlantiradi;
- Sanoat va iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi samarali strategiyalarni ishlab chiqish zaruriyati.

Shu nuqtai nazardan, maqola maqsadi - O'zbekiston sanoat korxonalarida mahalliy xom-ashyo manbalarini qo'llash orqali tannarxni kamaytirish mexanizmlari va istiqbollari aniqlashdir. Maqola natijalari korxona rahbarlari, iqtisodiy tahlilchilar va davlat organlari uchun mahalliyashtirish strategiyasini ishlab chiqishda ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi kutilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Mahalliyashtirish bo'yicha O'zbekiston va xalqaro olimlar bir qancha izlanishlar olib borgan. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, mahalliy xom-ashyo manbalaridan samarali foydalanish nafaqat ishlab chiqarish tannarxini kamaytiradi, balki korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, global va milliy tajribalar mahalliyashtirish strategiyasining turli tarmoqlar va hududlarda samaradorligini baholash imkonini beradi.

Global qiymat zanjirlari kontsepsiyasi bilan tanilgan Gary Gereffining ishlarida ishlab chiqarish jarayonlarida xom-ashyo resurslarining global va lokal oqimlari o'rganilgan. Unga ko'ra, mahalliy resurslardan samarali foydalanish korxonalarga tannarxni kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga imkon beradi. Shuningdek, global qiymat zanjirlari yondashuvi ishlab chiqarish zanjirida qiymat qo'shish jarayonlarini yaxshilash va importga qaramlikni kamaytirishning ilmiy asoslarini beradi. Bu konsepsiya O'zbekiston sharoitida ham xom-ashyo bazasini mahalliyashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish nuqtai nazarida muhim ahamiyatga ega.

Mahalliy tadqiqotlar, xususan, Z.Tohirov va Sevaraxon X.ning ishlari O'zbekiston sanoat tarmoqlarida mahalliy xom-ashyo manbalarini joriy etish va



korxona tannarxini kamaytirish imkoniyatlarini tahlil qilgan [2,3]. Tohirov mahalliy xom-ashyo asosida klaster ,yondashuvining iqtisodiy samaradorligini ko'rsatgan bo'lsa, Sevaraxon sanoat kooperatsiyasi orqali tayyor mahsulotlarni mahalliyashtirish va ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish mexanizmlarini yoritadi. Ushbu tadqiqotlar maqolaga O'zbekiston sharoitidagi amaliy kontekstni ta'minlaydi va ishlab chiqarish jarayonida mahalliy resurslardan foydalanishning rentabellik, tannarx va samaradorlikka ta'sirini ko'rsatadi.

I.Yakhyayeva to'qimachilik sanoatida xom-ashyo va ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish bo'yicha tajribalarni tahlil qilgan [1]. Ularning natijalari mahalliy xom-ashyo resurslaridan foydalanish orqali tannarxni kamaytirish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha aniq strategiyalarni belgilash imkonini beradi. Shu bilan birga, D.Damirovich va N.Kamilovanning tadqiqotlari mahalliy mahsulotlarga talabni oshirish va import o'rnini bosuvchi siyosatni ishlab chiqishning amaliy jihatlarini yoritadi [4].

Xalqaro tadqiqotlar, jumladan, Y.Kilicaslan va I.Temurovning ishlari importni kamaytirish va mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish strategiyalarini tahlil qilgan. Ular tadqiqotlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishda mahalliy resurslardan foydalanishning iqtisodiy afzalliklarini ko'rsatadi. Shu tariqa, mahalliy xom-ashyo manbalarini jalb qilish orqali ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish global tajribada ham samarali vosita sifatida ko'riladi.

Adabiyotlar tahlilidan ko'rinib turibdiki, mahalliyashtirish va xom-ashyo resurslaridan samarali foydalanish nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, balki iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash, importga qaramlikni kamaytirish va hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadqiqotlarda ishlab chiqarish jarayonida klaster yondashuvi, kooperatsiya mexanizmlari, global qiymat zanjirlarini hisobga olish va strategik resurslarni tejashning ilmiy asoslari yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.



Sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirish va korxona tannarxini kamaytirishda, asosan mahalliy xom-ashyo manbalarini jalb qilish, ularning ulushi va samaradorligini tahlil qilish, ishlab chiqarish jarayonida resurslardan optimal foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotda qo'llash bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Mahalliy xom-ashyo manbalarini samarali jalb etish va ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishga qaratilgan tadqiqot quyidagi vazifalar asosida olib borildi:

- So'nggi 3 yillik sanoat ishlab chiqarish hajmi, korxona va tarmoq darajasidagi xom-ashyo manbalarining ulushi o'rganildi. Shu ma'lumotlar asosida tannarx, ishlab chiqarish samaradorligi va rentabellik ko'rsatkichlari aniqlanib, jadval va grafiklar yordamida taqdim etildi.
- Mahalliy va xalqaro olimlarning tadqiqotlari tahlil qilinib, ishlab chiqarish jarayonida mahalliy lashtirishning iqtisodiy samaradorligi va global qiymat zanjirlari bilan bog'liqligi aniqlangan.
- Mahalliy xom-ashyo ulushi va ishlab chiqarish tannarxining o'zaro bog'liqligi moliyaviy modellar yordamida baholandi. Bu korxonalarda tannarxni kamaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.
- Mahalliy xom-ashyo ulushi yuqori bo'lgan va past bo'lgan korxonalar o'rtasida ishlab chiqarish samaradorligi, tannarx va rentabellik ko'rsatkichlari solishtirildi. Shu bilan birga, hududlar kesimida mahalliy lashtirishning samaradorligi baholandi.

Nazariy va amaliy asoslarni uyg'unlashtirish. Tadqiqot metodologiyasida statistik ma'lumotlar tahlili, nazariy manbalar, amaliy misollar va moliyaviy modellashtirish usullari birlashtirildi. Bu yondashuv O'zbekiston sharoitida mahalliy xom-ashyo manbalarini qo'llash orqali ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishning samaradorligini tizimli baholash imkonini beradi. Natijada, tadqiqot metodologiyasi ishlab chiqarish jarayonida mahalliy resurslardan samarali foydalanish, korxona tannarxini kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan amaliy va nazariy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Shu bilan



birga, metodologiya hududlararo va tarmoqlararo farqlarni aniqlash, strategik rejalashtirish va ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Tahlillar va natijalar.

Tadqiqot doirasida O'zbekiston sanoat ishlab chiqarish hajmi va mahalliy xom-ashyo manbalarini qo'llash orqali korxona tannarxini kamaytirish istiqbollari tahlil qilindi. Maqolada 2023-2025 yillar davomida jami sanoat hajmi, tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarish va mahalliy xom-ashyo ulushi hisobga olindi.

2023-2025 yillarda sanoat ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sish ko'rsatdi. 2023-yilning birinchi yarim yillik davrida ishlab chiqaradigan sanoat hajmi 246,6 trln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yil birinchi yarim yillikda 370 trln so'mga yetdi. 2025-yilning yanvar-fevral davrida jami sanoat ishlab chiqarish hajmi 122,2 trln so'm bo'lib, fevral oyidagi fizik hajm indeksi 106% ni tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval

№	Yil	Jami sanoat ishlab chiqarish (trln so'm)	Mahalliy xom-ashyo ulushi (%)	Indeks/O'sish (%)
1	2023 (yanvar-iyun)	246,6	62	-
2	2024 (yanvar-iyun)	370	65	+50%
3	2025 (yanvar-fevral)	122,2	68	106%

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, mahalliy xom-ashyo ulushi yildan-yilga oshib bormoqda, bu esa sanoat ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mahalliy xom-ashyo jalb qilish nafaqat ishlab chiqarish tannarxini kamaytiradi, balki hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishga va mahalliy ish o'rinlarini yaratishga ham yordam beradi. Shuningdek, mahalliy lashtirishning oshishi bilan korxona resurslaridan samarali foydalanish imkoniyati kengayadi va importga bo'lgan qaramlik kamayadi.

Sanoat tarmoqlari ichida qayta ishlovchi sanoat yetakchi o'rin egallaydi. 2025 yil yanvar-aprel davrida qayta ishlovchi sanoat jami sanoat ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy qiymatini 83,8% ini tashkil etdi. Mahalliy xom-ashyo



ulushi tarmoqlar bo'yicha quyidagicha: to'qimachilik sanoatida 70%, kimyo sanoatida 60%, metallurgiya sanoatida 55% ni tashkil qiladi (2-jadval).

2-jadval

№	Tarmoq	Jami ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy qiymati (trln so'mda)	Mahalliy xom- ashyo ulushi (%)
1	To'qimachilik	85	70
2	Kimyo sanoati	65	60
3	Metallurgiya	55	55
4	Energetika	35	30
5	Suv ta'minoti va boshqa xizmatlar	23	50

Tarmoqlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, mahalliy xom-ashyo ulushi yuqori bo'lgan tarmoqlarda tannarx sezilarli darajada kamayadi. Masalan, to'qimachilik sanoatida mahalliy paxta ulushi yuqori bo'lgani sababli tannarx 14% ga pasaydi. Shu bilan birga, kimyo sanoatida ham tannarx pasayishi 10–11% ni tashkil etadi. Bu esa mahalliyashtirishni joriy etish korxonalarga iqtisodiy foyda keltirishini ko'rsatadi. Tarmoqlar kesimida strategik tahlil mahalliy xom-ashyo manbalarini rivojlantirish va ularni qayta ishlash jarayonlariga samarali jalb qilish zarurligini ko'rsatadi. Mahalliyashtirish nafaqat tannarxni kamaytiradi, balki tarmoqlar barqarorligini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Sanoat ishlab chiqarish va mahalliy xom-ashyo ulushi hududlar kesimida ham farq qiladi. Navoi va Buxoro viloyatlarida mahalliy xom-ashyo ulushi yuqori bo'lib, bu hududlarda ishlab chiqarish tannarxi past. Toshkent va Samarqand tarmoqlarida esa xom-ashyo import qismi katta bo'lgani sababli tannarx yuqoriroq.



Hududiy tahlil shuni ko'rsatadiki, mahalliy xom-ashyo imkoniyatlari yuqori bo'lgan hududlarda korxona tannarxini kamaytirish strategiyasi samarali. Mahalliyashtirish hududiy strategiyalar bilan birgalikda amalga oshirilsa, hududlar iqtisodiyoti ham barqaror o'sadi, ichki resurslar samarali ishlatiladi va importga bo'lgan qaramlik kamayadi. Shu bilan birga, mahalliyashtirishning yuqori darajasi hududlarda ish o'rinlari va sanoat salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Mahalliyashtirish korxona tannarxini kamaytirishning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki, mahalliy xom-ashyo ulushi ortgani sari tannarx pasayadi. Bu nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki korxonalarga raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. Mahalliy xom-ashyo manbalaridan foydalanish orqali logistika xarajatlari kamayadi, importga bo'lgan qaramlik pasayadi, va ishlab chiqarish jarayonida barqarorlik ta'minlanadi. Shu bois, mahalliyashtirish strategiyasi korxonalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Mahalliy xom-ashyo ulushining ortishi korxona ishlab chiqarish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi va shu bilan birga ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hududlar kesimida mahalliy xom-ashyo resurslarining mavjudligi va foydalanish darajasi sezilarli farq qiladi, shu sababli hududiy iqtisodiy strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish korxonalarning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarmoqlar kesimida tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik va kimyo sanoati tarmoqlari mahalliyashtirish jarayonidan eng yuqori iqtisodiy foyda olgan. Bu tarmoqlarda mahalliy xom-ashyo ulushining oshishi nafaqat ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi, balki resurslardan samarali foydalanish, logistika xarajatlarini kamaytirish va ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar.

Bugungi kunda korxona ishlab chiqarish jarayonida tannarxni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, mahalliy xom-ashyo manbalarini ishlab chiqarish jarayoniga



jalb qilish korxona tannarxini pasaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, mahalliyashtirish darajasi yuqori bo‘lgan tarmoqlar va hududlarda ishlab chiqarish samaradorligi sezilarli darajada ortadi, tannarx esa kamayadi.

Hududlar kesimida mahalliyashtirish imkoniyatlarining farqliligi, ishlab chiqarish jarayonida mahalliy resurslardan foydalanish darajasi va sanoat tarmoqlarining xom-ashyo bazasi sezilarli farq qiladi. Shu sababli, hududiy strategiyalarni ishlab chiqish va tarmoqlar bo‘yicha mahalliyashtirishni optimallashtirish korxonalarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, to‘qimachilik, kimyo va metallurgiya tarmoqlarida mahalliy xom-ashyo ulushi oshishi bilan tannarx kamayib, ishlab chiqarish samaradorligi sezilarli darajada oshgan.

Mahalliy xom-ashyo manbalarini ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilish orqali nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki hududlararo raqobatbardoshlik va sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga ham erishish mumkin. Shu bilan birga, mahalliyashtirish strategiyasi korxona va hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi.

Shu asosda quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- ✓ Mahalliy xom-ashyo manbalarini tizimli ravishda aniqlash va ularni ishlab chiqarish jarayoniga samarali jalb qilish mexanizmlarini mustahkamlash;
- ✓ Hududlar va tarmoqlar kesimida mahalliyashtirish imkoniyatlarini tahlil qilgan holda strategik rejalashtirishni amalga oshirish;
- ✓ Zamonaviy texnologiyalar va ishlab chiqarish jarayonidagi resurslardan samarali foydalanishni joriy etish orqali tannarxni kamaytirish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirish;
- ✓ Mahalliy xom-ashyo bazasini kengaytirish orqali hududlarda yangi sanoat korxonalarini yaratish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- ✓ Mahalliyashtirish jarayonini korxona darajasida monitoring qilish va samaradorligini baholash tizimini ishlab chiqish;



✓ Hududlarda investitsion salohiyatni oshirish, xorijiy investorlarni jalb qilish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish.

Natijada, mahalliy xom-ashyo manbalarini ishlab chiqarishga jalb qilish korxona tannarxini kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va hududiy sanoat salohiyatini rivojlantirishning samarali vositasi ekanligi tasdiqlanadi. Ushbu yondashuv iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga, hududlar va tarmoqlarda barqaror sanoat rivojlanishini va raqobatbardosh ishlab chiqarish salohiyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yakhyayeva, I., & others. (2022). Developing cost-effective production in Uzbekistan's textile industry. *Journal of Industrial Economics*, 10(2), 45–63.
2. Tohirov, Z. Z. (2021). Mahalliy xom ashyo asosida klaster yondashuvining iqtisodiy samaradorligi. *Global Sciences Uzbekistan Journal*, 2(11), 370–376.
3. Sevaraxon, X. (2020). O‘zbekiston sanoat tarmoqlarida tayyor mahsulotlarni mahalliyashtirish tizimi. *Journal of Economic Development*, 5(4), 112–128.
4. Damirovich, D., & Kamilova, N. A. (2021). Ways to increase demand for local products, import substitutes. *Science & Education Journal*, 8(3), 78–91.
5. Otabek O., Shavkatbek E. Raw Materials in Industry and Its Properties //Eur. J. Artif. Intell. Digit. Econ. – 2024. – T. 1. – C. 51-54.
6. Kamilova A., Egamberdiyev S. ECONOMIC AND SOCIAL EFFICIENCY OF PRODUCTION //Экономика и социум. – 2024. – №. 12-2 (127). – С. 416-419.
7. Shavkatbek, Egamberdiyev. "THE ROLE OF STRATEGICALLY IMPORTANT SECTORS IN THE NATIONAL ECONOMY." *Modern education and development* 19.3 (2025): 631-636.
8. Bazarova G. et al. SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN SOCIO ECONOMIC DEVELOPMENT ROLE AND IMPORTANCE //Экономика и социум. – 2024. – №. 10 (125). – С. 53-57.



9. Пахлавонбек, Еанижонов, and Шавкатбек Эгамбердиев. "РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ В УСЛОВИЯХ ПРОЦЕССА ГЛОБАЛИЗАЦИИ." Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi 22 (2024): 186-190.
10. Shavkatbek, Egamberdiyev. "GLOBAL TRENDS IN THE GREEN ECONOMY." Modern education and development 19.4 (2025): 26-30.
11. Абдуллаев, Б., and Х. Эргашев. "ИННОВАЦИОННОЕ МЫШЛЕНИЕ В УПРАВЛЕНИИ ПРОИЗВОДСТВАМИ." Инновационные технологии на транспорте: образование, наука, практика. 2017.
12. Abdullaev B. A., Lazareva M. Factors influencing organizational and economic management mechanisms in the chemical industry //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 10. – С. 1011-1016.
13. Abdujabbor, Abdullayev, and Chirmashev Abdujalil. "ISLOM MOLIYASINI O‘ZBEKISTONDA JORIY ETISH TAMOYILLARI." Лучшие интеллектуальные исследования 57.1 (2025): 196-206.
14. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi. <https://www.stat.uz>